

NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDA MEXANIK DESTRUKSIYANI IFODALOVCHI FE‘LLARNING LEKSIK-SEMANTIK GURUHI

Amonova Zamira Bo‘riyevna

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: mira555.05.05@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada mexanik destruksiyaga oid fe‘llar guruhi nemis va o‘zbek tillari misolida semantik jihatdan tahlil qilinadi. Destruksiya, ya’ni buzish, vayron etish harakatini ifodalovchi fe‘llar semantik jihatdan kichik guruhlariga ajratilib, har bir guruhga mos fe‘llar nemis va o‘zbek tillaridagi ma’no komponentlari, kontekstual qo‘llanilishi asosida tahlil etiladi. Shuningdek, mexanik destruksiya fe‘llarining leksik-semantik xususiyatlarini ikki til doirasida aniqlanadi va ularning umumiy yoki o‘ziga xos jihatlari tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: destruksiya, semantik maydon, fe‘l, leksik-semantik guruh, mexanik buzilish, qiyosiy semantika.

Zamonaviy tilshunoslikning yangi taraqqiyot bosqichi lisonning barcha qatlamlarini semantika nuqtai nazaridan tadqiq etilishiga qiziqish uyg‘otmoqda. Ma’no komponentlariga boy leksik qatlamni tizimli ravishda o‘rganish maqsadida XIX asrning birinchi yarmida nemis tilshunosi Y.Trir tomonidan yaratilgan “semantik maydonlar nazariyasi”ning dunyo tilshunosligida keng yoyilishi bugungi kunga qadar so‘zlarni semantik guruhlashtirish an’anasining davom etib kelishiga zamin yaratdi. Xususan, o‘zbek tilshunosligida ham nafaqat milliy, balki qardosh va qardosh bo‘lmagan tillardagi leksik birliklarning semantik jihatlarini qiyosiy va chog‘ishtirma o‘rganishga bag‘ishlangan bir qancha ilmiy ishlar maydonga keldi. Jumladan, I.Qo‘chqortoyev o‘z monografiyasida o‘zbek tilidagi nutq fe‘llari semantik tizimida “demoq” fe‘li, gapiruv, ifodalov, talaffuz, subyektiv hukm, nutqiy da’vat simmetrik nutq hamda sukut fe‘llarini[1,79], R.Rasulov o‘zbek tili holat fe‘llari tarkibida - davomli holat, harakat natijasi bo‘lgan holat, ijro holati, harakatning holati, malaka holati, obrazli, biologik, fiziologik hamda psixik holat fe‘llarini[2,7], O‘.Sharipova yumush fe‘llarini[3,8], S.Muhamedova obyektisiz, gorizonta, vertikal, aylanma, tebranma, nafas va tovush chiqarish harakatini ifodalovchi, predmetning tik holatdan boshqa holatga o‘tishini bildiruvchi, obyektli, natijali ijro ifodalovchi, natijasi mavhum bo‘lgan ijroni ifodalovchi, og‘iz bo‘shlig‘idagi harakatlarni ifodalovchi) harakat fe‘llarining ma’no tuzilishiga ko‘ra o‘n bir kichik guruhni[4,9] tahlilga tortdi. Mazkur izlanishlarda u yoki bu semantik maydon fe‘llarining “umumiylik-xususiylk” tamoyili asosida katta va kichik leksik-semantik guruhlariga ajratib o‘rganish tamoyili diqqatni o‘ziga tortadi.

Semantik maydon nazariyasi haqidagi qarashlar rivojlanib borgan sari, leksikografik adabiyotlardagi so‘zlar ma’nosini, xususan, fe‘l sememalarini differensial-semantik metod yordamida tasniflash keng tus oldi. Bunda har biri iyerarxik tartibga hamda semantik maydonda o‘z funksiyasiga ega arxisema,

integral (umumiy, mushtarak, birlashtiruvchi) sema, differensial (farqlovchi) sema kabi tushunchalarga asosiy e'tiborni qaratla boshlandi. M.Mirtojiyevga ko'ra, "bir semantik maydonga mansub leksemalar sememalari uchun umumiy bo'lgan va ularni birlashtiruvchi sema arxisema; semantik maydonning guruhlari (maydonchalari) ga mansub leksemalar sememalari uchun umumiy bo'lgan va ularni birlashtiruvchi sema integral semadir. Differensial sema semantik maydonga kirgan har bir leksema sememasining o'ziga xos tomonini, xususiyatini belgilaydi [5,58]"

Umumiy tahlillarga ko'ra fe'llar harakat, holatni ifodalashining guvohi bo'lish mumkin. So'z turkumlari ichida birgina fe'llarning semantik tahlilini amalga oshirish ushbu turkumning bir qancha semantik guruhlarga ajratish imkoniyatini beradi. Qator tadqiqotlarda fe'llarning dinamiklik xususiyatlarini ifodalovchi kichik guruhlari alohida ta'kidlanadi. Ma'lumki dinamika biror hodisaning o'sish, taraqqiy etish, o'zgarish va rivojlanish jarayonini ifodalaydi. Mazkur guruh fe'llari ish-harakat, jarayonning mantiqan boshlang'ich nuqtasi, davomiylik fazasi hamda yakun topish nuqtasiga ega ekanligini izohlaydi. Bu ko'pqirrali qamrovga ega fe'llar semantikasidagi birgina yondashuv xolos. "Ona tilini o'rganamiz" qo'llanmasida to'qqiz turdagi fe'llarning ma'noviy guruhlari sanab o'tilgan bo'lib, aynan o'rta maktabda fe'llarning ma'noviy guruhlari 4 ga bo'linishi (nutqiy faoliyat fe'llari, aqliy faoliyat fe'llari, jismoniy faoliyat fe'llari, holat fe'llari) haqida eslatma ham keltirilgan[6,252]. Ma'no asosida guruhlanish togrisidagi fikrlar to'la tugallikka ega emasligini bizni qiziqtirgan destruksiyani ifodalovchi fe'llarning struktur semantikasini amalga oshirish orqali tushuntirish mumkin.

Destruksiyani ifodalovchi maydon fe'llarining semantikasini tilning turli (morfologik, leksik, sintaktik) sathlarida o'rganish ushbu maydonning yaxlit tahlilini amalga oshirishga imkon yaratadi. Fe'llarning semantikasini o'rganish ma'lum bosqich hamda tamoyillarni qamrab olishini inobatga olgan holda, destruksiya semali fe'llarni tahlilga tortish jarayonida, avvalo, ushbu guruh fe'llarini semantik komponentlarga ajratish, destruksiya turiga ko'ra tasniflash, destruktiv harakat va holat darajasini (jadalligini) aniqlash, kauzativligi, fe'llarning semantik valentligi (aktantlari), semantik maydon va semantik munosabatlar kabi kategoriyalarni aniqlash tizimli amalga oshiriladi.

Destruksiyani ifodalovchi semantik maydon vayronkorlik, buzilish, shikast, yo'q qilish yoki parchalash arxisemali fe'llarni qamrab oladi. Destruksiya turiga ko'ra fe'llar ikki katta guruhni o'z ichiga oladi: 1) Fizik (moddiy) destruksiya va abstrakt (mavhum) destruksiya fe'llari. Fizik destruksiya fe'llari o'z navbatida bir integral semalari asosida bir qancha kichik guruhlarni o'z ichiga oladi. Ayrim olimlar tomonidan mexanik 2) kimyoviy 3) biologik 4) termik (harorat ta'siridagi) destruksiya fe'llari tadqiq etilgan bo'lib, ushbu ro'yxatni har bir fe'l semasining ifodasiga qarab, 5) tabiiy destruksiya 6) degradatsiya fe'llari qatori bilan boyitish mumkin.

Destruksiyaning eng keng tarqalgan turi mexanik destruksiya bo'lib, u obyektlarning tarkibiy qismiga jismoniy ta'sir ko'rsatish orqali futur yetishi,

shikastlanishi, butunligi va yaxlitligining buzilish jarayonini, deformatsiyasini anglatadi. Mazkur guruh fe'llari obyektga tashqi va ichki ta'sir etish darajasiga (yengil, chuqur, butunlay) va shakl buzilishini ifodalashiga ko'ra diferensial semasi orqali bir necha kichik guruhlarga ajratiladi. G.L.Naxrachova maxanik destruksiyaning uch xil ko'rinishda namoyon bo'lishini ta'kidlaydi: 1) obyektning ustki qismidagi mikrostrukturaga ta'sir (shikast) o'tkazish; 2) obyektning makrostrukturasi ta'sir etish orqali uning yaxlitligini buzish; 3) subyektning butunlay vayron etilishi, yo'q qilinishi. Keltirilgan har bir guruh mustaqil bo'lsada, ularning orasidagi chegara beqaror va shartlidir. Buning sababi, o'lchov mezonida deb tahmin qiladi muallif. Narsaga qisman zarar yetib, uni tiklash imkoni bo'lsa - shikastlanish, destruksiya obyekt strukturasi o'zgarishiga sabab bo'lsa - buzilish (vayron bo'lish), agar destruksiya ta'sirida obyekt mavjud bo'lishdan to'xtasa - bu uning yo'q qilinishi demakdir[7,75]. Biz shartli ravishda mexanik destruksiya fe'llarini obyektga ta'sir etish xarakteriga ko'ra quyidagicha tasnifladik:

1) sinish va parchalanishni ifodalovchi fe'llar:

	Nemis tilida		O'zbek tilida
bersten	<i>Die Flasche ist durch den Druck geborsten.</i>	yormoq	<i>Shisha bosimdan yorildi.</i>
sich teilen	<i>Das Brett hat sich in zwei Teile geteilt.</i>	bo'lmoq	<i>Taxta ikkiga bo'lindi.</i>
zerspringen	<i>Das Glas ist mit einem lauten Knall zersprungen.</i>	parchalamoq	<i>Oyna baland ovoz bilan parchalanib ketdi.</i>

2) ezish va deformatsiya (shakl buzilishi)ni ifodalovchi fe'llar:

zerdrücken	<i>Das Insekt wurde unter dem Schuh zerdrückt.</i>	ezmoq	<i>Hasharot oyoq kiyimi ostida ezilib ketdi.</i>
drücken	<i>Meine Schuhe drücken am Fuß.</i>	siqmoq	<i>Poyabzalim oyog'imni siqmoqda.</i>
biegen	<i>Er biegt den Draht mit einer Zange.</i>	bukmoq	<i>U simni qisqich bilan egmoqda.</i>
zerknittern	<i>Sie hat das Papier vor Wut zerknittert.</i>	g'ijimlamoq	<i>U qog'ozni ga'zab bilan g'ijimladi.</i>
dehnen	<i>Das Gummiband dehnt sich unter Spannung.</i>	cho'zmoq	<i>Rezina tasma tortish kuchi ta'sirida cho'ziladi</i>
quetschen	<i>Man kann Öl aus Oliven quetschen.</i>	siqmoq (siqib chiqarmoq)	<i>Zaytundan yog' siqib olish mumkin.</i>
ausrollen	<i>Der Bäcker rollte den Teig auf dem Tisch aus.</i>	yoymoq	<i>Nonvoy xamirni stolda yoydi.</i>

3) maydalanish va bo'laklanish fe'llari:

zerbröckeln	<i>Er hat das Brot zerbröckelt.</i>	uvoqlamoq	<i>U nonni uvoqladi.</i>
zermalmen	<i>Die Mühle zermalmte das Getreide zu feinem Mehl.</i>	(ezib) maydalamoq	<i>Tegirmon donni mayin un qilib ezdi.</i>
zerquetschen	<i>Die Erbsen wurden unter dem Schuh zerquetscht.</i>	yanchmoq	<i>No 'xatlar poyabzal ostida yanchildi.</i>
pulverisieren	<i>Das Medikament wurde pulverisiert.</i>	kukunga aylantirmoq	<i>Dori kukun holiga keltirildi</i>

4) Kesish va yirtish fe'llari:

schneiden	<i>Sie schneidet sich versehentlich in den Finger. /Sie hat den Stoff mit der Schere geschnitten</i>	esmoq/ qaychilamoq	<i>U tasodifan barmog'ini kesib oldi./U matoni qaychilab chiqdi.</i>
zerreißen	<i>Er hat das Heft zerrissen.</i>	yirtmoq	<i>U daftarni yirtidi.</i>
sägen	<i>Der Handwerker sägt das Brett genau nach Maß.</i>	arralamoq	<i>Usta taxtani aniq o'lcham bilan arra bilan kesmoqda.</i>

5) Teshish fe'llari

durchbohren	<i>Der Speer durchbohrte das Herz des Drachen</i>	teshmoq	<i>Nayza ajdarning yuragini teshib o'tdi.</i>
durchdringen	<i>Die Kugel durchdrang die Wand und blieb im Inneren stecken</i>	teshib kirmoq (o'tmoq)	<i>O'q devorni teshib o'tib, ichkarida qolib ketdi.</i>

Ba'zi fe'llar semantik jihatdan farq qiladi. Masalan, nemis tilidagi „zerdrücken“ (ezmoq) va „quetschen“ (siqmoq) o'zbek tilida bir xil ma'noga ega bo'lishi mumkin, ammo nemis tilidagi fe'lning ma'nosi kengroq, ya'ni suyuqlik yoki boshqa moddalarni siqib chiqarishni ham ifodalaydi. Shuningdek, „sägen“ (arralamoq) va „schneiden“ (kesmoq) fe'llari o'zbek tilida ham kesish ma'nosida ishlatilsa, nemis tilida ularning har biri o'ziga xos mexanik jarayonni ta'riflaydi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek va nemis tillaridagi mexanik destruksiya fe'llari semantik maydon ichida o'zaro mutanosib va semantik nuqtai nazardan ayrim farqlanuvchi kichik guruhlariga ajratilishi mumkin. Har ikki tilda fe'llarning destruktiv harakatni ifodalashdagi asosiy semantik komponentlari – obyektga ta'sir, harakat natijasining darajasi (shikast, deformatsiya, bo'linish, yo'qolish) va vositaning ishtiroki (qaychi, pichoq, nayza) bo'yicha aniqlanadi. Shu bilan birga, har bir tilga xos tasviriy vositalar, metaforik ishlanmalar ham mavjud bo'lib, bu sohalar yanada chuqurroq tahlilni talab etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Кучкортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги (узбек тилидаги нутк Фейллари материали асосида), Монография. -Тошкент: Ўзбекистон ССР “ФАН” нашриёти, 1977. - 166 б.
2. Расулов Р. Ўзбек тили феълларининг маъно тузилиши 2-нашри. - Тошкент: Низомий номидаги Тошкент Давлат педагогика университети нашриёти, 2008. - 143 б.
3. Шарипова Ў. Юмуш феълларининг маъно валентликлари (Ўқув кулланма). - Тошкент: Низомий номидаги Тошкент Давлат педагогика университети нашриёти, 2012. - 71 б.
4. Мухамедова С. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантикаси ва валентлиги. Монография. - Тошкент: Ўзбекистон республикаси ФА “Фан” нашриёти, 2013. - 122 б.
5. Миртожиев М.М. Ўзбек тили семасиологияси. -Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2010. - 288 б.
6. Ona tilini o'rganamiz: akademik litsey va kasb-hunar kollej o'quvchilari uchun o'quv qo'lanma/ D. Matkarimova, N. Mamatqulova, N. Mamatjanova - T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2013. - 576 b.
7. Нахрачёва Г.Л. Семантика и функционирование глаголов деструктивного действия в хантыйском языке (на материале шурьшкарского диалекта): монография: – Ханты-Мансийск: Югорский формат, 2016. – 167 с.